

Innovatsion loyihalar iqtisodiyotning turli tarmoqlariga xom-ashyo yetkazib berish samaradorligini oshiradi

// 08 November 2024 yil

<https://pda.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/innovatsion-loyihalar-iqtisodiyotning-turli-tarmoqlariga-xom>

Ishlab chiqarish innovatsion loyihalar bilan takomillashtirilmoqda



[uzkimyosanoat.uz](https://pda.uzkimyosanoat.uz)



@uzkimyosanoat



@uzkimyosanoat



uzkimyosanoat.uz



uzkimyosanoat



@uzkimyosanoat



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 6-iyuldagi "2022-2026-yillarda O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini amalga oshirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorida iqtisodiyotning real sektori tarmoqlari tomonidan yangi innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish bo'yicha amalga oshiriladigan aniq ustuvor loyihalar belgilangan.

Mazkur yo'nalishda kimyo sanoati korxonalarini tomonidan bir qator amaliy ishlar qilindi.

Xususan, "Farg'onaazot" AJ mutaxassislarini tomonidan ishlatilgan katalizatorlardan import o'rnini bosuvchi rux xlorid mahsulotini ishlab chiqarish loyihasi amalga oshirildi. Ma'lumot o'rnida ta'kilash joiz, rux xlorid oziq-ovqat, to'qimachilik, metal, dori-darmon, akkumulyator, qog'oz, yelim, alkohol, gigiyena vositalari, qo'shimchalar, moy tozalash vositalari mahsulotlari tayyorlashda va boshqa ko'plab sohalarda qo'llaniladi. Rux xlorid mamlakatimizga import qilinadi. Loyihaning dolzarbligi shundaki, ekologiya va atrof-muhitga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan to'planib qolgan ishlatilgan katalizatorlar rux xloridini ishlab chiqarishda xom ashyo sifatida foydalaniladi. Loyiha natijasida ular qayta ishlanadi va importdan kirib kelayotgan mahsulot mahalliyashtiriladi.

"Maxam-Chirchiq" AJda esa ammoniy karbonat tuzini ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish va texnologiyani takomillashtirish loyihasi doirasida ishlab chiqarish quvvatlari qurilmalari o'zgartirildi va texnologik jarayon mukamallashtirildi. Shu tariqa qishloq xo'jaligida azotli o'g'it, bo'yoqlar sifatida kosmetikada, yong'inga qarshi kompozitsiyalarning tarkibiy qismi bo'lgan ammoniy karbonat ishlab chiqarish samaradorligi oshirildi.

“Maxam-Chirchiq” AJda qurilmalarni o‘zgartirish va texnologiyani mukammallashtirish orqali yana bir loyiha ya’ni, magniy sulfat tuzini ishlab chiqarish jarayoni takomillashtirildi. Bu o‘z navbatida, issiqxonalarda o‘g‘it sifatida, karbamid o‘g‘itining yopishib qolishiga qarshi qo‘shimcha sifatida, magnezial sement ishlab chiqarishda magniy oksidini olish uchun xomashyo, to‘qimachilik sanoatida tolani og‘irlashtiruvchi va matolarni bo‘yash uchun vosita, pulpa va qog‘oz sanoatida qog‘oz to‘ldiruvchi hisoblangan magniy sulfat tuzini sanoatning turli tarmoqlariga yetkazib berish imkoniyatlarini yanada kengaytiradi.

"O'zkimyosanoat" AJ Matbuot xizmati